SENSOMOTOR ALALIYA: RIVOJLANISH MEXANIZMLARI VA LOGOPEDIK YONDASHUVLAR

Yangi asr universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Feruza Yusupova Akildjanovna

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sensomotor alaliya nutq nuqsoni haqida pedagogik va klinik tomondan qisqacha izoh, shuningdek sensomotor alaliyali bolalarda uchraydigan birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi belgilar yoritilgan. Sensomotor alaliya nuqsoni, uning mexanizmlari, hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan diagnostikada uchraydigan muammolarning sabablari va korreksion tadbirlar ahamiyati qisqacha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sensomotor alaliya, nutq rivojlanishining buzilishi, fonematik idrok, artikulyatsion apparat, mayda qo‘l motorikasi, autistik spektr buzilishi.*

Abstract. *This article provides a brief pedagogical and clinical overview of sensorimotor alalia speech defects, as well as primary, secondary, and tertiary signs that occur in children with sensorimotor alalia. The defect of sensorimotor alalia, its mechanisms, the causes of problems encountered in diagnostics, which are currently relevant, and the importance of corrective measures are briefly described.*

Keywords: *sensorimotor alalia, speech development disorders, phonemic perception, articulation apparatus, fine motor skills, autistic spectrum disorder.*

Аннотация. *В данной статье представлен краткий педагогический и клинический обзор сенсомоторной алалии, а также*

первичные, вторичные и третичные признаки, встречающиеся у детей с сенсомоторной алалией. Кратко описаны дефект сенсомоторной алалии, его механизмы, причины проблем, возникающих в настоящее время в диагностике, и значение коррекционных мероприятий.

Ключевые слова: *сенсомоторная алалия, нарушение развития речи, фонематическое восприятие, артикуляционный аппарат, мелкая моторика рук, расстройство аутистического спектра.*

Kirish. Nutq bu avvalambor insonlarni bir-biri bilan bog‘lovchi, o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlarini anglatuvchi muhim vositadir. Shunday ekan o‘ziga qaratilgan nutqni tushunmaslik, o‘z fikrlarini bayon eta olmaslik, hissiyotlari bilan bo‘lisha olmaslik, hohish-istaklarini bildirish imkonidan mahrumlik insonni, ayniqsa bolalarni psixik tushkunlikka olib keladi, bu esa turli psixofizik buzilishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Asosiy qism. Alaliya bu tizimli nutq buzilishi bo‘lib, unda nutqning barcha komponentlari: fonetik-fonematik, leksik-grammatik tuzilishining buzilishi bilan ifoda etiladi. Umumjahon statistik ma`lumotlariga ko‘ra, Alaliya umumiy nutq buzilishlar diagnostik ko‘rsatkichida: Maktabgacha yoshdagi bolalarda taxmiman 1% (yani har 100 boladan 1 tasi). Maktab yoshidagi bolalarda bu ko‘rsatkich 0,2-0,6% gacha kamayadi.

Alaliya nutq nuqsoni o‘g‘il bolalarda qizlarga nisbatan taxminan 2 barobar ko‘proq uchrashi ma`lum bo‘lgan. Bu ma`lumotlar faqatgina tog‘ri berilgan diagnostik xulosalar asosidagina yig‘ilgan, ammo noto‘g‘ri aniqlangan diagnostik xulosalar oqibatida noto‘g‘ri korreksion ishlar olib borilishi ko‘p hollarda kuzatilmoqda.

Sensomotor alaliya shu o‘rinda bolalar nutq rivojlanishining og‘ir shakldagi buzilishi bo‘lib, nutqni idrok etish va nutqni ifodalash

mexanizmlarining birgalikdagi buzilganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu nutq nuqsoni markaziy nerv tizimining to‘liq yetilmaganligi, erta organik yoki funksional shikastlanishi natijasida yuzaga keladi va bosh miya po‘stlog‘ining peshona hamda chakka sohalari faoliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Sensomotor alaliya bolaning nutqiy va umumiy psixik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, shu sababli mazkur muammo logopediya va maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi[5].

Sensomotor alaliyaga ega bolalarda nutqni tushunishning buzilishi fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmasligi bilan namoyon bo‘ladi. Bola nutqiy tovushlarni farqlashda qiynaladi, so‘zlarning ma’nosini noto‘g‘ri anglaydi yoki vaziyatga moslashtirib tushunadi. Shu bilan birga, motor komponentning yetishmovchiligi sababli artikulyatsion harakatlar noaniq, nutqiy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ket bajarish qiyinlashadi. Natijada faol nutq juda cheklangan, grammatik jihatdan noto‘g‘ri va bog‘lanishsiz bo‘ladi.

Sensomotor alaliyaning klinik manzarasida leksik zaxiraning kamligi, agrammatizmlar, nutqiy tashabbusning pastligi hamda nutqiy bo‘lmagan jarayonlar — diqqat, xotira va tafakkur rivojlanishining ikkilamchi buzilishlari, boladagi isterik holatlar, ruhiy agressiya kuzatiladi. Mazkur belgilar sensomotor alaliyani eshitish nuqsonlari, psixik rivojlanishning orqada qolishi va autizm spektri buzilishlaridan farqlashda birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu jarayon o‘z navbatida mutaxassisdan yuqori bilim va malaka talab qiladi. To‘g‘ri berilgan logopedik xulosa, olib boriladigan korreksion ish tizimini to‘g‘ri tashkil etish imkonini beradi [8].

Logopedik korreksiya jarayoni kompleks yondashuv asosida olib borilishi lozim. Korreksion ishlar nutqni idrok etishni rivojlantirish, fonematik

eshituvni shakllantirish, artikulyatsion apparatni faollashtirish, mayda qo‘l matorikasi ustida ishlash hamda leksik-grammatik tuzilmani bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, nutqni nutqiy bo‘lmagan faoliyat turlari bilan integratsiyalash, vizual tayanchlardan foydalanish, nevropotolog, psixonevrolog va ota-onalar bilan uzluksiz hamkorlikda ish olib borish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Xulosa. Shuni ta`kidlash lozimki, sensomotor alaliya tashxisili bolalarda korreksion ishning samaradorligi uchun avvalambor uni tog‘ri aniqlash va diagnostik xulosa asosida imkon qadar mukammal, oddiydan murakkabga tamoyiliga asoslangan holda korreksion ish tizimini belgilash muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ананьев Б. Г. Психология развития ребёнка. — Москва: Педагогика, 2002.

2. Балабанов В. Н., Беспалько Л. П. Логопедия детского возраста. — Москва: Академия, 2010.

3. Кашпировский Л. Г. Нарушения речи у детей. — Москва: Просвещение, 2005.

4. Крупинский Л. А. Коррекционная работа при алалии у детей. — Санкт-Петербург: Речь, 2015.

5. Лалаева Р. И., Шаховская С. Н. Логопедия в таблицах и схемах. — Москва: Владос, 2023.

6.Лурия А. Р. Высшая кортикальная деятельность человека. — Москва: Изд-во МГУ, 1973.

7.Подоляко Н. Л. Сенсомоторная алалия и методы коррекции. — Москва: Владос, 2018.

8. Смирнова И. А. Логопедия. Иллюстрированный справочник. — Санкт-Петербург: Питер, 2025.